

Bizning sezgi



Sezgi – insonning og‘riqni, issiq yoki sovuqni his qilish qobiliyatidir. Inson terisi orqali ham sezadi.



Terimizda juda kichik, ko‘zga ko‘rinmaydigan sezgir nuqtalar bor. Ana shu nuqtalar qo‘limiz tegib turgan narsaning silliq yoki dag‘alligi, iliq yoki muzdekligi, yumshoq yoki qattiqligi haqida miyaga xabar berib turadi.

Teri insonni xavf-xatardan ogohlantirib turadi. Agar issiq choynakka tegib ketsangiz, qo‘lingiz kuyadi, shu zahoti og‘riqni sezib, qo‘lingizni tortib olasiz. Yupun kiyimda sovuqda qolsangiz, shu zahoti sovgota boshlaysiz. Teri miyaga xabar berib, issiq uyga tezroq kirish kerakligini aytadi.



Bu narsalarning sirti qanaqa ekanini eslang.





Siz bu narsalarni qaysi sezgi a'zolingiz bilan o'rganasiz?



Tajriba. Mavzu: "Barmoqlaringiz bu jismlarni eslab qoladimi?"

1. O'rtog'ingiz yoki dugonangiz ko'zingizni bog'lab qo'ysin.
2. Oldingizga har xil narsalar: o'yinchoqlar, o'quv jihozlari, idishlar qo'yishsin.
3. Har bir narsani qo'lingizga olib, barmoqlaringiz bilan paypaslab ko'ring.
4. Uning shakli qandayligini, nimadan yasalganini aytib bering.
5. Endi siz o'sha narsalarni ko'rmay turib taniy olasizmi?
6. Siz bu narsalarni qanday tanidingiz?
7. Xulosa qiling.



Uydagi biror narsani tanlab, beshta sezgi a'zongiz yordamida uning qandayligini aytib bering.